



Fidoyilik –  
Vatanga xizmat demak!

2026-yil 1-iyul, chorshanba,  
58 (24.238)-son

Yangi O'zbekistonda  
yoshlarni qo'llab-  
quvvatlash, ularning  
orzu va intilishlarini  
ro'yobga chiqarish –  
davlat siyosatining  
eng ustuvor  
yo'nalishlaridan biri.

**Shavkat  
MIRZIYOYEV.**

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan



www.zarnews.uz



https://www.facebook.com/zarnews.uz



@zarnews\_uz



https://twitter.com/zarnews\_uz



info@zarnews.uz

MUSTAQILLIK

35



**YAGONA VATAN, YAGONA XALQ BO'LIB,  
YANGI HAYOT VA KELAJAK YARATAMIZ!**



## Xalq ishonchini ta'minlashning muhim mezoni

Viloyat hokimi A.Boboyev ishtirokida  
aholi murojaatlari va ularda ko'rsatilgan  
muammolarni hal etish borasida olib  
borilayotgan ishlar natijadorligi bo'yicha  
brifing o'tkazildi.



Qayd qilinganidek, davlatimiz rahbarining joriy yil 13-mart kuni aholi murojaatlari bilan ishlash tizimini yangi darajaga ko'tarish va jamoatchilik fikrini chuqur tahlil qilishga bag'ishlab o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida berilgan topshiriqlar hamda "Aholi bilan muloqot tizimini samarali tashkil qilish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni bilan belgilab berilgan vazifalarni amalga oshirish borasida viloyatimizda bir qator ishlar olib borilmoqda.

Jumladan, aholi murojaatlari bilan ishlash tizimini yangicha tashkil etish bo'yicha viloyat shtabi tuzildi hamda uning tarkibiga 29 nafar mas'ul birlashtirildi. Barcha tuman va shaharlarda aholi murojaatlarini tahlil qilish va manzilli hal etish yo'lga qo'yilib, oyina-oy amalga oshiriladigan harakatlar rejalari ishlab chiqilgan.

Tahillarga ko'ra, aholi muammolarini o'z vaqtida o'rganish hamda ularni bartaraf etish bo'yicha ayrim idora va tashkilotlar, shahar va tumanlar rahbarlarining sustkashlikka yo'l qo'yayotgani kuzatilmoqda. Masalan, ba'zi boshqarma va idoralar, hokimliklar tomonidan murojaatlar o'z vaqtida ko'rib chiqilmayapti, byurokratiya va sansalorlikka yo'l

qo'yilib, muammolar hal etilmayapti. Oqibatda o'z joyida hal etilishi mumkin bo'lgan masalalar yuqori idoralargacha ko'tarilmoqda, takroriy murojaatlar ko'paymoqda.

Joriy yil 27-iyun kunga qadar Virtual va Xalq qabulxonalariga viloyat aholisidan 39,2 mingta murojaat tushgan va bu raqam o'tgan yilning mos davriga nisbatan 9 foizga kamaygan. Hududlar kesimida eng ko'p murojaat Samarqand shahri (6168 ta), Past Darg'om (4328 ta), Urgut (3689 ta), Payariq (2920 ta), Kattaqo'rg'on (2687 ta), Narpay (2616 ta), Paxtachi (2575 ta) va Ishtixon (2511 ta) tumanlaridan tushgan.

Murojaatlarda moddiy yordam va nafaqa ajratish, kadastr hujjatlarini rasmiylashtirish, elektr va gaz ta'minoti, bandlik va ishga joylashtirish, qurilish, aliment va qarz undirish, ichki yo'llarini ta'mirlash, ichki ishlar, bank tizimiga doir masalalar ko'p uchramoqda.

- Shu o'rinda murojaatlar sonining ko'payishiga sabab bo'layotgan muhim bir jihatga to'xtalmoqchiman, - dedi A.Boboyev. - Ommaviy sayyor qabullarda, elektron tarzda doimiy arizalar yo'llovchi "navbatchi murojaatchilar" ham bor. Tegish-

li tashkilotlar va sud organlari tomonidan bir necha bor ko'rib chiqilgan bo'lsa-da, ular muntazam murojaat qilib kelmogda. Bu esa takroriy murojaatlar sonining ortishiga sabab bo'lyapti.

Misol uchun, Samarqand shahrida yashovchi doimiy murojaat qilib keladigan bir guruh fuqarolar qurilish, ishga qayta tiklanish va boshqa turli masalalarda 5-10 marta murojaat yo'llagan. Paxtachi tumanida yashovchi fuqaro ishga qayta tiklanish va boshqa tuman maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi faoliyatidan norozi bo'lib 9 marta, Past Darg'om tumanida istiqomat qiluvchi fuqaro maktabgacha va maktab ta'limi xodimlari ish faoliyatidan norozi bo'lib 11 marta murojaat qilgan.

Albatta, yuqoridagilarning barchasi kelgusida murojaatlar bilan ishlashda aynan nimalarga e'tibor qaratish zarurligini ko'rsatmoqda. Shu jihatdan, har bir murojaat ortida inson taqdiri turganini inobatga olgan holda, ularning o'z vaqtida va sifatli hal etilishini ta'minlash eng muhim va ustuvor vazifa bo'lib qolaveradi.

Bundan tashqari, takroriy murojaatlarning oldini olish maqsadida tizimli muammolarni tubdan hal qilish choralarini ko'riladi. O'z navbatida murojaatlar bilan ishlash jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalari va sun'iy intellekt imkoniyatlari keng joriy etiladi.

Brifingda qayd qilinganidek, aholi murojaatlari bilan ishlash bu nafaqat davlat organlarining vazifasi, balki xalq ishonchini ta'minlashning eng muhim mezonidir. Shu bois har bir rahbar va mas'ul xodim ushbu yo'nalishda shaxsiy javobgarlikni chuqur his etgan holda faoliyat yuritishi lozim bo'ladi.

**Y.MARQAYEV.**

## MUKOFOTLAR MUBORAK!

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2026-yil 29-iyunda "Yoshlar kuni munosabati bilan yurtimizning faol va tashabbuskor yosh avlod vakillaridan bir guruhini mukofotlash to'g'risida" farmon hamda "Mard o'g'lon" davlat mukofoti bilan taqdirlash to'g'risida" qaror qabul qildi.

*Tengdoshlariga har tomonlama o'rnak bo'lib kelayotgan tashabbuskor va yetakchi quyidagi samarqandlik yoshlar davlat mukofotlari bilan taqdirlandi:*

**«KELAJAK BUNYODKORI»  
medali bilan**

**Nurmatova Pokiza Akmaljon qizi** - Past Darg'om tumanidagi «Kaja Games» milliy o'yinlar startap loyihasi asoschisi

**«MARD O'G'OLON»  
mukofoti bilan**

**Elbekov Shohzodbek Elbek o'g'li** - O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining harbiy qism otryad komandiri

**Xudoyberdiyev Dilshodjon Rayimberdi o'g'li** - viloyat suv sport turlariga ixtisoslashtirilgan sport maktabining akademik eshkak eshish bo'limi sportchisi.



## Nurobodda yirik sement zavodi ishga tushirildi



**Joriy yilning 16-18-iyun kunlari  
o'tkazilgan V Toshkent xalqaro  
investitsiya forumida dunyoning 100  
dan ortiq mamlakatidan 8 mingdan  
ziyod ishtirokchi qatnashdi.**

Viloyatimiz vakillari ham ushbu forumda munosib qatnashib, rivojlangan davlatlardan tashrif buyurgan 80 dan ortiq kompaniya mas'ullari bilan muzokaralar o'tkazdi.

Jumladan, AQShning "Cove Capital" kompaniyasi bosh direktori Pini Ataxuz, Germaniyaning "HYPERCON" kompaniyasi boshqaruvchisi Todor Totev, Fransiyaning "Groupe Bonduelle" kompaniyasining MDH davlatlari bo'yicha bosh direktori Frederik Puss bilan muloqot davomida muhim kelishuvlarga erishildi. Kelishuvlar asosan tog'-kon sanoati, metallurgiya, qurilish materiallari ishlab chiqarish, to'qimachilik, energetika, raqamli infratuzilma hamda boshqa ustuvor tarmoqlarni qamrab oladi.

Koreya davlatining "BOMI" kompaniyasi

## 40 DAN ORTIQ KOMPANIYA VAKILLARI SAMARQAND IMKONIYATLARINI O'RGANDI



boshqaruv raisi Kim Dok Yong bilan o'tkazilgan uchrashuvda Samarqand shahrining "Shirin" massivi hududidagi 1 gektar yer maydonida 20 million dollarlik zamonaviy ko'p funktsiyali turar joy majmuasini barpo etish loyihasini amalga oshirish bo'yicha kelishildi.

Forum doirasida o'tkazilgan 40 dan ortiq yirik kompaniya vakillari, xususan, AQShning "Ecology Mirror Group" kompaniyasi asoschisi va ijrochi direktori Adham Yusupov, Avstriyaning "Lasselsberger Group" kompaniyasi bosh direktori Yozef Lasselsberger, Germaniyaning "Xolding Progress Grupp" kompaniyasining texnik direktori Shtefan Gaydel ham viloyatimizda bo'lib bu yerdagi investitsion imkoniyatlar bilan yaqindan tanishdi.

**Shuhrat NORBOYEV,**  
viloyat investitsiyalar, sanoat va savdo  
boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari.

**Yoshlar kuni oldidan Samarqand viloyati  
suv sport turlariga ixtisoslashtirilgan sport  
maktabining akademik eshkak eshish  
bo'yicha sportchisi Dilshod Xudoyberdiyev  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
qaroriga muvofiq «Mard o'g'lon» davlat  
mukofoti bilan taqdirlandi.**

## «Mard o'g'lon»ga munosib sportchi



Bu yuksak e'tirof Dilshodning ko'p yillik mashaaqqatli mehnati, sportga bo'lgan sadoqati, yuksak mahorati hamda xalqaro musobaqalarda mamlakatimiz sharafini munosib himoya qilib kelayotganining munosib bahosidir. U yosh bo'lishiga qaramay, nufuzli xalqaro musobaqalarda yuqori natijalarni qayd etib kelmogda. 2023-yilda Xitoyning Xanchjou shahrida bo'lib o'tgan XIX Yozgi Osiyo o'yinlari g'olibi bo'ldi. 2024-yilda Rossiyaning Qozon shahrida o'tkazilgan «BRICS Games Kazan 2024» xalqaro musobaqasida sovrindorlar safidan joy egalladi. Samarqand shahrida o'tkazilgan Osiyo chempionatida uchta oltin medalni qo'lga kiritib, o'zining yuksak mahoratini namoyon etdi. 2025-yilda Italiyaning Varese shahrida bo'lib o'tgan Jahon kubogining I bosqichida kuchli o'nikdan joy oldi. U shuningdek, ko'p karra Osiyo chempioni sifatida e'tirof etilgan. 2026-yilda esa nufuzli «Amber Oars» xalqaro regatasida sovrindor bo'ldi.

Bu natijalar sportchining matonati, intilishi va Vatan sharafini munosib himoya qilish yo'lidagi fidokorona mehnatining yorqin namunasidir.

Dilshodning bugungi muvaffaqiyatlarini ortida oilasining qo'llab-quvvatlashi va to'g'ri tanlangan yo'l ham muhim o'rinni tutadi. Otasi, shifokor-travmatolog Raimberdi Xo'jamov o'g'lining sportga kirib kelgan ilk qadamlarini shunday eslaydi:

- Dilshod maktabda o'qib yurganida jussasi

ancho kichik, tengqurlari orasida nimjon edi. Uni olti yoshida, tengdoshlaridan bir yil oldin maktabga berganmiz. Shuning uchun ham sinfdoshlari orasida jismonan ancho nozik ko'rinar edi. O'zim shifokor-travmatolog sifatida sport uning sog'lom va baquvvat bo'lib voyaga yetishiga katta yordam beradi, deb o'yladim. Shu maqsadda uni yettinchi sinfda Toyloq olimpiya xazinalari tayyorlash markaziga olib bordim. Bugun ortga nazar tashlasam, o'sha qarorim to'g'ri bo'lganini ko'ryapman. Hozir u tengdoshlari orasida baquvvatlaridan biri. Bo'yi 195 santimetr, vazni 80 kilogramm. Buning barchasi mehnat, intizom va sportning samarasi.

Toyloq tumani Chorbog' mahallasida voyaga yetgan Dilshod Xudoyberdiyev Samarqand davlat universitetining jismoniy madaniyat fakultetini tamomlab, Samarqand viloyati suv sport turlariga ixtisoslashtirilgan sport maktabida akademik eshkak eshish bo'yicha trener-o'qituvchi sifatida faoliyat yuritmoqda. U o'z tajribasi va bilimini yosh sportchilar bilan baham ko'rish barobarida, sport faoliyatini ham muvaffaqiyatli davom ettirmoqda.

Ayni paytda Dilshod Litva Respublikasida o'quv-mashg'ulot yig'inida ishtirok etmoqda. Uning kelgusida ham xalqaro arenalarda, xususan, 2028-yilda AQShning Los-Anjeles shahrida bo'lib o'tadigan XXXIV yozgi Olimpiya o'yinlarida mamlakatimiz bayrog'ini yanada yuksak ko'tarib, Vatanimizga yangi g'alabalar bilan qaytishiga ishonamiz.

**To'liqin SIDDIQOV.**

Bugungi shiddatli texnologiyalar asrida, axborot oqimi soniyalar ichida almashinib turgan bir paytda bir qarashda kitob o'qish eskilik sarqitidek tuyulishi mumkin. Ammo chuqurroq mulohaza yuritsak, hech qanday ijtimoiy tarmoq yoki qisqa videorolik kitob bergan bilim va ma'naviy oziqning o'rnini bosa olmasligini anglaymiz. Kitob — bu shunchaki qog'oz va siyoh to'plami emas, u insoniyat tamaddunining xotirasi, tafakkur xazinasi va kelajakka qo'yilgan mustahkam poydevor.

# Inson hayotini o'zgartiradigan odat

**TAFAKKUR KENGAYIB, DUNYOQARASH SHAKLLANADI**

Kitob o'qish o'zgalarning tajribasini o'zlashtirish demakdir. Bir donishmand aytganidek, "Kitob o'qimagan inson faqat o'z umrini yashaydi, kitobxon esa minglab taqdirnlarni boshdan kechiradi". Faqat bugina emas, kitob sizni vaqt va makon chegaralaridan olib chiqadi. Siz uyda o'tirgan holda qadimgi Misr ehromlariga borishingiz, koinot sirlarini o'rganishingiz yoki kelajak dunyosiga nazar tashlashingiz mumkin.

Mutolaa jarayonida inson voqealarni tahlil qiladi, sabab va oqibat bog'liqliklarini qidiradi. Bu esa kundalik hayotda aldanib qolmaslik va mustaqil fikr yuritish qobiliyatini shakllantiradi.

Insonning ichki dunyosi uning nutqida aks etadi. Ko'p kitob o'qiydigan insonning nutqi ravon, fikri tiniq va ifoda uslubi boy bo'ladi. Chunki badiiy adabiyot yangi so'zlar, iboralar va tashbehlar xazinasidir. Ular ong ostiga muhrlanib, kerakli vaziyatda nutqimizni bezaydi. E'tibor qilganmisiz, so'z boyligi keng inson har qanday davrada o'z fikrini ishonchli va ta'sirli yetkaza oladi. Bu esa liderlik sifatlarini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi.

Asosiysi, zamonaviy tibbiyot kitob o'qishni eng yaxshi terapiya usullaridan biri deb tan oladi. Tadqiqotlarga ko'ra, bor-yo'g'i 6 daqiqalik mutolaa stress darajasini 68 foizgacha kamaytirishi mumkin. Aslida ham yaxshi kitob insonni kundalik tashvishlardan uzib, o'z dunyosiga yetaklaydi. Bu musiqa tinglash yoki sayr qilishdan ko'ra samaraliroq ta'sir ko'rsatadi.

Badiiy adabiyot qahramonlarning kechinmalarini, xarakterlarini o'qish orqali biz shaxsiy "men"imizni to'g'rilash imkoniga ega bo'lamiz.

Misol uchun, "O'tgan kunlar"dagi Otabek 22-23 yoshida bugungiday poyezd yoki samolyot kabi tezkor vositalar, simsiz aloqa uskunalarini yo'q bir davrda Xitoy, O'rusiyagacha savdo karvonlarini olib borganligiyoq uning jasurligi, diplomatiyasi, qo'ying-chi, rosa toparmon-tutarmon yigit ekanligini anglatadi. Lekin shunday (Marg'ilonda uch kishi bilan yakkama-yakka olishuvda ularni o'ldirgan) yigit biron joyda dag'allik qilmaydi. Hatto Hasanali haqida so'rashganda u chiqib ketgandan keyin past ovoz bilan "qulimiz", deydi.

Tengdoshlarimiz bu kabi kitob qahramonlarini bilishi, ulardan "motivatsiya" olishi kerak emasmi?

**MAQSAD EMAS, VOSITA ...**

Bugun ommalashgan fikr "Kitob mutlaqo keraksiz", degan xulosa to'g'ri emas. Menimcha, bunda muammo kitob o'qishni maqsadga aylantirishdadir.

Ba'zan insonlar kitob o'qishning o'zi bilan faxrlanadilar, ammo o'qigan bilimlarini hayotda qo'llamaydilar. Natijada kitobxonlik faoliyatga emas, balki passiv mashg'ulotga aylanib qoladi.

Kitob o'qishning eng katta afzalliklaridan biri bilim olish imkoniyatidir. Inson kitob orqali turli sohalar haqida ma'lumotga ega bo'ladi. Ilmiy kitoblarda tabiat qonunlarini o'rgatga, tarixiy asarlar o'tmish voqealarini anglashga yordam beradi. Iqtisodiyot, psixologiya, tibbiyot, texnologiya, huquq va boshqa ko'plab sohalar bo'yicha yozilgan kitoblarda insonning bilim xazirasini bo'yitadi.

Demak, kitob vosita bo'lishi kerak. U insonga yaxshi kasb egallash, biznes boshlash yoki muayyan ko'nikmani rivojlantirishga yordam berishi mumkin.

Agar siz kitob o'qishni boshlamoqchi bo'lsangiz-u, lekin nimadan boshlashni bilmayotgan bo'lsangiz, mutaxassislarning quyidagi kichik tavsiyalari asqotishi mumkin.

Dastlab, o'zingizga qiziq bo'lgan janr - detektiv, sarguzasht yoki psixologiyadan boshlang.

Kitob o'qish uchun kuniga kamida 15-20 daqiqa vaqt ajrating. Muhimi, davomiylik.

Telefonni uzoqroqqa qo'ying va tinch go'shani tanlang.

Yoqqan fikrlarni daftarga yoki telefonga belgilab boring.

Esdan chiqarmang, kitob shunchaki vaqt o'tkazish vositasi emas, u shaxsiyatni shakllantiruvchi kuch. "Kitob o'qimaydigan insonning kitob o'qishni bilmaydigan insondan hech qanday farqi yo'q". Mutolaa nafaqat bilim, balki ruhiy erkinlik va ichki xotirjamlik kalitidir. Shu bois, bugundan boshlab javoningizdagi chang bosib yotgan bir kitobni varaqlang. Zero, yangi hayot aynan o'sha sahifalardan boshlanishi mumkin.

**Otabek UMIROV, SamDChTI talabasi.**

Tabiat insondan hamisha tayyorgarlik va ehtiyotkorlikni talab etadi

Bir mavzuda ikki fikr

# Amaliy ko'nikmalar ustun

**Bugungi tezkor va keskin raqobatga asoslangan dunyoda ko'pincha eskirgan qarashlar asosida yashashda davom etamiz. Bolaligimizdan qulog'imizga quyilgan "Kitob o'qisang, olim bo'lasan" degan ibora afsuski, hozirgi bozor iqtisodiyoti talablariga har doim ham javob bermay qoldi. Shaxsiy rivojlanish va farovon hayot kechirish uchun faqatgina kitob mutolaasi kifoya, degan tushuncha nafaqat xato, balki xavfli hamdir. Aslida insonning yaxshi yashashi va jamiyatda o'z o'rnini topishi uchun amaliy hunar egallash, moliyaviy savodxonlik va bozor talablariga moslashish kitob o'qishdan ko'ra bir necha barobar muhimroq.**



**KITOB VA REAL HAYOT ORASIDAGI MASOFA**

Kitoblarda tasvirlangan voqealar yoki berilgan nazariy bilimlar ko'pincha ideal-lashtirilgan bo'ladi. Muallif o'z qarashlarini bayon qilargan, real hayotdagi to'siqlar, kutilmagan iqtisodiy inqirozlar yoki inson xarakterining murakkabliklarini har doim inobatga ololmaydi.

Masalan, suzish haqida yuzlab kitob o'qishingiz mumkin, ammo suvga tushmaguningizcha suzishni o'rgana olmaysiz. Hayot ham shunday.

Bundan tashqari, axborot asrida kitob chop etilgunga qadar undagi ma'lumotlarning yarmi eskirib ulguradi. Kasb-hunar va tirik muloqot orqali olingan tajriba esa doimo yangilanib turadi.

O'zi umuman, yaxshi yashashning asosiy sharti - iqtisodiy mustaqillik. Ko'p kitob o'qigan, lekin o'z oilasini boqishga qiynalayotgan "kambag'al ziyolilar" qatlami-ni mavjudligi fikrimga isbot bo'la oladi.

E'tibor qilganmisiz, maktab yoki badiiy adabiyot bizga kapital to'plash, investitsiya qilish yoki soliqlarni hisoblashni o'rgatmaydi. Bu ko'nikmalar faqatgina amaliy harakat va bozorni o'rganish orqali shakllanadi.

Qisqasi, insonning qorni och, uy-joyi yo'q ekan, undagi "ma'naviy rivojlanish"ga bo'lgan intilish soxta bo'lib qolaveradi. Avvalo, iqtisodiy poydevorni qurish, keyin esa boshqa narsalar haqida o'ylash mantiqan to'g'ri.

**HAR QANDAY DAVRDAGI "OLTIN BILAKUZUK"**

Xalqimizda "Hunar - oltin bilakuzuk" degan naql bor. Bu bejiz aytilmagan. Chunki hunar egallagan inson qayerda bo'lishidan qat'i

nazar, o'z mehnati bilan tirikchilik qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Elektrik, santexnik, tikuvchi, oshpaz, dasturchi, dizayner yoki boshqa mutaxassislarga doimo talab yuqori bo'ladi.

Zamon o'zgarishi, texnologiyalar yangilanishi mumkin, ammo muayyan muammoni hal qilish qobiliyatiga ega inson har doim qadrlil bo'lib qoladi. Demak, haqiqat shuki, jamiyatga sizning qancha kitob o'qiganingiz emas, balki qanday muammoni hal qila olishingiz qiziq. Ya'ni, boshqalarning muammosini yechib bera oladigan hunarga ega bo'lsangiz, hech qachon och qolmaydiz.

Menimcha, kitobxon inson ko'pincha o'z lamiga qamali qoladi. Shaxsiy rivojlanish esa odamlar bilan ishlash, xato qilish va undan xulosa chiqarish orqali bo'ladi.

Ko'pchilik eshitgan, bitta muvaffaqiyatsiz yakunlangan kichik biznes loyihasi insonga biznes haqidagi o'nta kitobdan ko'ra ko'proq dars beradi.

Real hayotda ham ish beruvchi xodimning qancha kitob o'qiganiga emas, balki qanday vazifani bajara olishiga ko'proq e'tibor qaratadi. Mijoz ham xizmat ko'rsatuvchining bilimdon ko'rinishiga emas, balki muammosini hal qilib berishiga haq to'laydi.

**NIMAGA DIQQAT QILISH KERAK?**

Agar maqsadingiz farovon yashash bo'lsa, mutaxassislarga vaqtlingizni to'g'ri sarflashni tavsiya qilgan. Unga ko'ra avvalo, hunar o'rganish kerak. Bu nega muhim? Hunar har qanday iqtisodiy holatda ham daromad manbaini kafolatlaydi.

Shuningdek, savdo san'atini bilish zarur. Maqsadingiz yaxshi yashash ekan, demak, siz jamiyatga nimadir berishni ham bilishingiz kerak. U qandaydir xizmat yoki mahsulot ko'rinishida bo'lishi ham mumkin. Lekin muhimi, uni sota olish mahorati bo'lmasa, bari befoyda.

Hech kim inkor qilolmaydi, tanish-bilishlar va professional muhit yangi imkoniyatlar eshigini ochadi.

Bundan tashqari, pul topish qobiliyati insonga mustaqillik beradi. Bunday qobiliyat bilan boshqalarga qaram bo'lib qolmaydiz, o'z rejalaringizni amalga oshirish imkoniga ega bo'lasiz.

Albatta, pul hayotdagi yagona maqsad emas. Lekin pulsiz ko'plab maqsadlarga erishish ham qiyin. Shuning uchun daromad manbai yaratish va iqtisodiy savodxonlikni oshirish har bir inson uchun muhim vazifa.

Xulosa o'rinda aytish mumkinki, kitob o'qish - bu shunchaki hordiq chiqarish yoki ma'lumot olish usuli bo'lishi mumkin, ammo u hech qachon muvaffaqiyatning kafolati emas. Shaxsiy rivojlanishning eng yuqori nuqtasi bu insonning o'z hayotini mustaqil boshqara olishi, o'zi va yaqinlariga munosib turmush sharoiti yaratib berishidir.

Buning uchun esa nazariy bilimlardan voz kechib, amaliy hunarga, pul topish qonuniyatlarini o'rganishga va hayotning qanoq jarayonlarida ishtirok etishga vaqt ajratish kerak. Zero, hayot kitob sahilafarida emas, ko'chada, ishxonada va bozorda kechadi. Sizga badiiy obrazlar emas, balki real ko'nikmalar non va farovonlik olib keladi.

Endi o'zingiz aytg, hozirgi zamonda faqat kitob o'qish bilan muvaffaqiyatga erishish mumkinmi yoki amaliy ko'nikmalar birinchi o'rindami?

**Shaxriyov SUNNATOV, SamDChTI talabasi.**

# Kuchli yog'ingarchiliklar

shahar irrigatsiya tizimini isloh qilishni talab qilmoqda

**Keyingi yillarda iqlim o'zgarishi ta'sirida dunyoning ko'plab hududlarida bo'lgani kabi mamlakatimizda ham kuchli yog'ingarchiliklar, sel va suv toshqinlari holatlari tez-tez kuzatilmoqda. Bunday tabiiy hodisalar nafaqat qishloq xo'jaligi va iqtisodiyotga, balki shahar infratuzilmasining qay darajada mustahkam va zamon talablariga javob berishini ham sinovdan o'tkazadi.**

Bugungi kunda shahar hududini kesib o'tgan 7 ta ariq va kollektorlarning umumiy uzunligi 73,6 kilometrni tashkil etadi. Shundan 3 ta kanalning uzunligi 36,7 kilometr, 4 ta kollektor-drenaj tarmog'ining uzunligi esa 36,6 kilometrga teng.

O'tgan oylarda Samarqand shahrida kuzatilgan kuchli yog'ingarchilik ham shaharning suv chiqarish tizimida mavjud muammolarni ochiq-oydin namoyan qildi. Yomg'irning qisqa vaqt ichida katta hajmda yog'ishi natijasida shaharning qator markaziy ko'chalari va aholi gajum hududlarida suv to'planib qoldi. Bu esa transport harakatining izdan chiqishiga, piyodalarning harakatlanishida qiyinchiliklar yuzaga kelishiga hamda shahar aholisi uchun bir qator noqulayliklarni keltirib chiqardi. Ayniqsa, shaharning Chuquryo'l, Dahbed, Panjakent, Buyuk Ipak yo'li, Narpay kabi asosiy ko'chalari-da suv bosishi holatlari kuzatildi.

Kuchli yog'ingarchilikdan keyin viloyat hokimi vaziyatni joyiga chiqqan holda o'rganib, shahar va tumanlar hududidan oqib o'tuvchi asosiy irrigatsiya tarmoqlari holati tahlil qilindi. Xususan, Obi Rahmat kanali hamda Siyob kanali bo'ylab joylashgan mahallalarda suv harakatiga to'sqinlik qilayotgan omillar aniqlandi.

Galaasiyo, Rasadxona, Qircha, Ko'ja Doniyor, Obirahmat, Bog'i Maydon,

Geologlar, Qo'rg'oncha va boshqa mahallalar hududidagi ayrim ariq va zovurlar ko'p yillar davomida to'liq tozalanmagan. Ayrim joylarda ular chiqindilari bilan to'lib qolgan.

- Viloyat hokimining topshirig'i asosan irrigatsiya tarmoqlarini qayta ta'mirlash ishlarini olib boryapmiz, - deydi Samarqand shahar obodonlashtirish boshqarmasi boshlig'i Feruz Aliyev. - Jumladan, G'afur G'uloli mahallasida 650 metr irrigatsiya lotogi rekonstruksiya qilinib, ikki xonadon hamda Andijon ko'chasining ayrim qismlarida suv toshqini xavfi bartaraf etildi. Rudakiy va Maroqand ko'chalari kesishmasidagi ochiq irrigatsiya tarmog'ining 1300 metr qismi rekonstruksiya qilinib, yopiq tizimga o'tkazildi. Abdulla Qahhor mahallasi hududidan o'tuvchi shahar tashlama ariq'ining 350 metr qismiga katta diametrlil quvurlar o'rnatilishi natijasida o'ttizdan ortiq xonadonni suv bosishining oldi olindi.

Aslida Samarqand shahrida suv chiqarish va irrigatsiya tarmoqlarini yaxshilash bo'yicha ishlar avval ham amalga oshirilgan. Bir necha yillar muqaddam shahardagi suv o'tkazish inshootlari, ariq va kollektorlar ta'mirlanib, ayrim hududlarda rekonstruksiya qilingan edi. Biroq vaqt o'tishi bilan aholi sonining ko'payishi, yangi turarjoy massivlari va savdo obyektlarining qurilishi, shuningdek, infratuzilmaga tushayotgan yuklama ortishi natijasida mavjud tizim o'z



quvvatini yo'qota boshladi.

Mutaxassislarning ta'kidlashicha, ayrim ko'chalar qayta ta'mirlanganidan keyin yomg'ir suvlarini chiqarish tarmoqlari to'liq saqlab qolinmagan yoki ularning ayrim qismlari turli sabablarga ko'ra berkilib qoldi. Bu esa kuchli yog'ingarchilik paytida suvning tabiiy oqimini sekinlashtirib, ko'chalarda to'planib qolishiga sabab bo'lmoqda.

Jumladan, shaharning Sadridin Ayniy va Namozgoh ko'chalari hududida ko'cha ostidan o'tgan quvurda nosozlik yuzaga kelib, suv yig'ish qismi o'pirilib tushishi oqibatida hududni suv bosdi. Shuningdek, Bog'ishamol kanalidagi 85-86-piketlar oralig'ida, Samarqand davlat chet tillari instituti yaqinida joylashgan quvurli o'tish qismida ham muammo kuzatildi. Quvur diametrining yetarli emasligi, uning noto'g'ri joylashtirilgani hamda chiqindilar to'planib qolgan suv oqimining erkin harakatlanishiga to'sqinlik qildi va natijada suv toshishi holati yuzaga keldi.

Shu munosabat bilan mazkur irrigatsiya tarmoqlarini tozalash, kengaytirish, chuqurlashtirish va betonlashtirish ishlarini tashkil etish bo'yicha tegishli topshiriqlar berildi. Bu ishlar nafaqat hozirgi muammolarni hal etish, balki kelgusida yuzaga kelishi



mumkin bo'lgan suv toshqinlarining oldini olishga ham xizmat qiladi.

Mas'ul tashkilotlar tomonidan bugungi kunda keng ko'lami obodonlashtirish va tozalash ishlarini amalga oshirilmoqda. Ariqlar, zovurlar va kollektorlar maxsus texnikalar yordamida loy va chiqindilardan tozalanmoqda. Mutaxassislarning ma'lum qilishicha, har kuni o'rtacha 400-500 metr suv o'tkazish tarmoqlari tozalanib, 100 tonnadan ziyod turli chiqindilar va loyqa massasi olib chiqilmoqda.

Bu raqamlar suv chiqarish tarmoqlarida yig'ilib qolgan chiqindilar miqdori qanchalik katta ekanini ko'rsatadi. Agar mazkur ishlar o'z vaqtida amalga oshirilmasanida, kelgusida kuchli yog'ingarchiliklar yanada og'ir oqibatlarga olib kelishi mumkin edi.

O'rganishlar davomida aniqlangan yana bir muhim masala irrigatsiya tarmoqlari atrofida qurilgan noqonuniy inshootlardir. Ayrim fuqarolar ariq va kanallar yoqasida qo'shimcha binolar, devorlar yoki boshqa qurilmalar barpo etgan. Bu esa suvning erkin harakatlanishiga jiddiy to'sqinlik qilib, favqulodda holatlarda suv toshishi xavfini oshiradi.

Samarqanddagi holat shahar infratuzilmasini yanada takomillashtirish zarurligini ko'rsatmoqda. Ayni paytda istiqbolli loyi-

halar ustida ham ishlar davom etmoqda. Xususan, Chuquryo'l ko'chasida "Siyobcha" kollektorini yopiq tizimga o'tkazish bo'yicha loyiha-smeta hujjatlari tayyorlanmoqda. Bu loyiha amalga oshirilgach, sel va yomg'ir suvlari to'planishining oldi olinib, transport hamda piyodalar harakati uchun yanada qulay sharoit yaratiladi. Chashma kollektorining Kuloon ko'chasi bo'ylab o'tgan bir kilometr qismi ham yopiq tizimga o'tkazilishi rejalashtirilgan.

- Har safar yog'ingarchiliklar boshlansa, yurak hovuchlab qolamiz, - deydi xususiy tadbirkor Namoz Ochilov. - Chunki Chuquryo'l ko'chasi misoli toshqin kanalga aylanib qoladi. Na piyoda, na mashinada o'tib bo'ladi. 3-4 yil ilgari ko'chadagi ariq-drenajlarga bir necha barobar kattalikdagi quvurlar ko'mishgan edi. O'sha vaqtda bu talabga javob bergan edi. Endi aholi tomonidan kanal va ariqlarga tashlanayotgan chiqindilar bunday ko'plab muammolarga sabab bo'lmoqda. Samarqandliklarning ekologik madaniyatini yuksaltirish muhim. Shu bois fuqarolarning atrof-muhitga munosabatini shakllantirish, targ'ibot ishlarini kuchaytirish dolzarb ahamiyatga ega.

Kuchli yog'ingarchilik Samarqand shahri uchun qaysidir ma'noda ogohlantiruvchi qo'ng'iroq bo'ldi. Tabiat insondan hamisha tayyorgarlik va ehtiyotkorlikni talab etadi. Shaharda boshlangan tozalash, kengaytirish va rekonstruksiya ishlar suv chiqarish tizimini yaxshilashga xizmat qilishi shubhasiz. Biroq barqaror natijaga erishish uchun davlat tashkilotlari, mutaxassislar va aholi hamkorlikda harakat qilishi zarur.

Zero, toza ariqlar, samarali irrigatsiya tarmoqlari va zamonaviy infratuzilma bu nafaqat shahar obodligi, balki aholi xavfsizligi va farovonligining ham muhim kafolatidir. Samarqandda amalga oshirilayotgan ishlar ana shu maqsadga xizmat qilishi bilan ahamiyatli.

**Dilmurod TO'XTAYEV.**



# Kelajak bunyodkorlari!

## 30-IYUN – YOSHLAR KUNI

*bilan barchangizni muborakbod etamiz!*



**Bugun har sohada erishilayotgan yutuqlarimiz sizlarning harakatingiz va o'z ustingizda tinimsiz ishlashingiz mevasidir. O'zbekiston nomini ilm-fan, sport, san'at va boshqa barcha jabhalarda yuksaklarga ko'taradigan sizdek yoshlarimiz ko'payversin.**

**Abituriyentlarga yaqinlashib kelayotgan sinovlarda omad tilaymiz. Ertangi kunning egalari sizlardek tashabbuskor, bilimga chanqoq, ko'zlari yonib turgan yoshlar ekanligini hech vaqt yodingizdan chiqarmang!**

**Bilim olish, izlanish, yangiliklar yaratish, bunyodkorlik ishlarini amalga oshirishda hamisha omad yor bo'lsin. Imkoniyatlaringiz eshigi ochiq bo'lsin.**

**Sizlarga mustahkam sog'lik, ilm-fan va mehnat yo'lida ulkan muvaffaqiyatlar tilaymiz. Hamisha intiluvchan, jonkuyar va vatanparvar bo'lib, yangi g'oya hamda tashabbuslar bilan mamlakatimizni dunyoga tanitishdan aslo charchamang!**

**O'ZBEKISTON MADANIYAT, SPORT VA TURIZM XODIMLARI KASABA UYUSHMASI VILOYAT BIRLASHGAN QO'MITASI JAMOASI.**

## «Madad»

aholiga birlamchi bepul yuridik yordam ko'rsatuvchi institutga aylanmoqda

**Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 6-sentabrdagi «Aholiga huquqiy axborotni yetkazish va yuridik yordam ko'rsatish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori asosida joylarda «Madad» muassasa shaklidagi nodavlat notijorat tashkiloti tashkil etila boshlandi.**

**Tashkilotning maqsadi fuqarolarning huquqiy manfaatlarini himoya qilish, huquqiy savodxonlikni oshirish hamda huquqiy muammolarni qonun doirasida hal etishga ko'maklashishdan iborat.**

Bugungi kunda tashkilot fuqarolarga huquqiy masalalar yuzasidan bepul birlamchi yuridik yordam ko'rsatib, yurtimizning eng chekka hududlarida yashovchi aholi uchun ham malakali huquqiy yordamdan foydalanish imkoniyatini yaratmoqda. Faqat huquqiy maslahat berish bilan cheklanmasdan, huquqiy targ'ibot ishlariga alohida e'tibor qaratilyapti. Huquqiy bilimlarni ommalashtirishga ko'ngillilar jalb qilinib, aholi o'rtasida huquqiy madaniyatni oshirishga qaratilgan targ'ibot ishlari olib borilyapti. Fuqarolar-dan kelib tushayotgan huquqiy murojaatlar muntazam tahlil qilinib, huquqni qo'llash amaliyotida uchrayotgan muammolar o'rganilmoqda. Tahlillar natijasi-da amaldagi qonunchilikni takomillashtirish, huquqni qo'llash amaliyotini yanada samarali tashkil etish bo'yicha tegishli takliflar ishlab chiqilmoqda.

«Madad» NNT faoliyatida «Advice.uz» huquqiy axborot portali alohida o'rin tutadi. Portal orqali fuqarolar hayotida eng ko'p uchraydigan huquqiy masalalar bo'yicha sodda va tushunarli shaklda huquqiy ma'lumotlar, amaliy tavsiyalar hamda maslahatlar taqdim etiladi.

«Advice.uz» faoliyatini yo'lga qo'yishda Adliya vazirligi hamda Britaniyaning O'zbekistondagi elchixonasi hamkorligi-



da amalga oshirilgan «Birlamchi bepul huquqiy maslahat» loyihasi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ko'p yillik tajribaga ega bo'lgan Buyuk Britaniyaning «Citizens Advice» tarmog'ining aholiga huquqiy xizmat ko'rsatish bo'yicha ilg'or tajribalari o'rganilib, milliy amaliyotga moslashtirildi.

Bugungi kunda «Madad» NNT aholiga huquqiy yordam ko'rsatish, huquqiy axborotni keng targ'ib qilish, raqamli huquqiy xizmatlarni rivojlantirish bilan birga inson huquq va erkinliklarini ta'minlash, qonun ustuvorligini mustahkamlash hamda huquqiy davlat barpo etish jarayoniga munosib hissa qo'shmoqda.

**Rahimjon XONNAZOV,**  
**Toyloq tumani «Madad» huquqiy maslahat bo'limi bosh mutaxassisi.**

### REKLAMA, E'LOMLAR, BILDIRISHLAR / MUHOJAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

**YIG'ILISHDA QATNASHING!**  
**Past Darg'om tumanidagi «505-son MKMK» mas'uliyati cheklangan jamiyati ta'sischilarining umumiy yig'ilishi 2026-yil 10-iyul kuni soat 17:30 da jamiyat binosida bo'lib o'tadi.**

#### KUN TARTIBIDA:

1. Jamiyatning moliyaviy holatini yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlar;
2. Jamiyatning moddiy-texnik bazasini rivojlantirish;
3. Boshqa masalalar.

**MANZIL: Past Darg'om tumani Kamolot mahallasi, 218-uy. JAMIYAT MA'MURIYATI.**

\*\*\*

#### DA'VOLAR BO'LSA...

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslarida marhum Yaxiyayev Ranakulga (2024-yil 27-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslarga murojaat etishlarini so'raymiz.

\*\*\*

Narpay tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Qurbonov Azizjon Ro'ziyevich notarial idorasida marhum Abdusamatov Abrorjon Baxodirovichga (2025-yil 23-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Qurbonov Azizjon Ro'ziyevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Narpay tumani Oqtosh shahri, Imom Buxoriy ko'chasi.**

\*\*\*

Narpay tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Qurbonov Azizjon Ro'ziyevich notarial idorasida marhum Ruziyev Sharip Kuchkarovichga (2017-yil 10-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Qurbonov Azizjon Ro'ziyevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Narpay tumani Oqtosh shahri, Imom Buxoriy ko'chasi.**

\*\*\*

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Yusupova Iroda Rustamovna notarial idorasida marhum Gafurov Aliga (1986-yil 22-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Yusupova Iroda Rustamovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Bog'dod ko'chasi, 1-uy, 3-xona.**

\*\*\*

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Hazratqulov Mahmud Mo'minqulovich notarial idorasida marhum Raxmonova Shafolatga (2021-yil 5-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Hazratqulov Mahmud Mo'minqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 36-«A» uy.**

\*\*\*

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Abdullayev Nodir Jamoliddinovich notarial idorasida marhum Boltayev Teshaga (2014-yil 18-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Abdullaev Nodir Jamoliddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand tumani U.Samiyev ko'chasi, 1-uy.**

\*\*\*

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mirzayeva Barno Jo'raqulovna notarial idorasida marhum Axatov Islom Tojiboy o'g'liga (2024-yil 23-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mirzayeva Barno Jo'raqulovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Jomboy tumani Zebunis ko'chasi, 4-«A» uy.**

\*\*\*

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Isoqulova Nigora Turdiqulovna notarial idorasida marhum Mansurov Maksudga (2020-yil 14-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Isoqulova Nigora Turdiqulovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Abu Rayhon Beruniy ko'chasi, 12-uy.**

\*\*\*

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Qodirov Ulug'bek Tolibovich notarial idorasida marhum Kurbanov Berdiga (2021-yil 13-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Qodirov Ulug'bek Tolibovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Ibn Sino ko'chasi.**

\*\*\*

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Jo'rayev Kamoliddin

Muhiddinovich notarial idorasida marhum Urakova Lutfiyaga (2022-yil 24-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri O'zbekiston ko'chasi, 35-uy.**

\*\*\*

Toyloq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Usmonov Nodir Yoqub o'g'li notarial idorasida marhum Umarov Ixtiyor Saidkulovichga (2000-yil 7-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Usmonov Nodir Yoqub o'g'li notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Toyloq tumani Vorsin ko'chasi, 39-uy.**

\*\*\*

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Murtazayev Ulug'bek Saidkulovichga (2000-yil 7-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Murtazayev Ulug'bek Saidkulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Orzu Mahmudov ko'chasi, 12-uy.**

\*\*\*

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ashurova Dilafroz Ziyodullayevna notarial idorasida marhum Abduraxmanov Abdulalim Gaffarovichga (2025-yil 1-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ashurova Dilafroz Ziyodullayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 110-uy.**

\*\*\*

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Xodiyev Farrux Farxodovich notarial idorasida marhum Valimuxametova Rafiga Axmetovnaga (2015-yil 21-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Xodiyev Farrux Farxodovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Chuqur yo'l ko'chasi, 9-«B» uy.**

\*\*\*

#### BEKOR QILINADI

Ishtixon tumanidagi Mamarasulov Akram Yusuf o'g'li yakka tartibdagi tadbirkorining (JSHSHIR: 30401986050075) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

# HIMMATINGIZNI KO'Z-KO'Z QILMANG

**Yaxshilikning yo'li ko'p: karam, himmat, sovg'a, hadya, dardkashlik... Lekin bir narsa aniqiki, ko'nglida himmati bo'lmagan odamning birovga yaxshilik qilishi qiyin. Donishmandlar ham «So'ralmaganida qilingan himmatgina haqiqiydir», deb aytishadi. Alisher Navoiy «Mahbub ul-qulub» asarida «Karam – bironing tikanlik yukini ko'tarmoq va tikan sanchilishidan guldek ochilmoq va shu qilgan ishi haqida qayta og'iz ochmaslik», deb yozadi.**

Darhaqiqat, haqiqiy himmatli kishilar o'z himmatidan zavqlanadilar. Bu allomalimiz aytgan, lug'atlarda yozilgan va har bir inson bilishi kerak bo'lgan naqlardir. Biroq...

Hayotda biz ba'zida buning aksini ko'ryapmiz. Tashkilot rahbarlari juda katta yig'inlarda xatoga yo'l qo'ygan mutaxassis yoki xodimga tanbeh berar ekan, zarur paytda unga qilgan ko'magini yuziga aytishdan tap tortmaydi. Ayniqsa, murojaatlar bilan ishlaydiganlar yordam so'ragan fuqaroni unga berilgan sovg'a bilan suratga tushishdan ham uyalmaydi. Go'yoki minnat bizda oddiy turmush tarziga aylanayotgandek. Vaholanki, minnatli ish savobning o'rniga o'tmaydi.

Rahbarlardan ham, davlatmandlardan ham «So'raganida berganing uchun rahmat, ammo so'ramaganlarga qanday himmat ko'rsat-yapsan?», deb so'raydigan payt keldi. Zero, allomalimiz odamlarning eng yomoni ta'na va minnat qilganidir, deb bejiz aytishmagan.

Harqalay, nochor oilalarning to'ylarini o'tkazib berishni ko'z-ko'z qilishdan tiyilganga o'xshaymiz. Lekin uning boshqacha ko'rinishlari hali davom

## Mulohaza uchun mavzu



ga haqqi yo'q. Chunki muallim bu faoliyati uchun davlatdan maosh o'layapti», degan edi. Shunday bir rivoyat bor. Yamanlik Hotami Toyning ukasi xuddi uningdek bo'lishni istab, onasiga muddaosini aytibdi. Ona esa saxovatpeshalik har kimning qo'lidin kelmaydi, deb e'tiroz bildiribdi. O'jar uka baribir ishga kirishibdi. Uch kechayu uch kunduz xalqqa osh tarqatibdi.

Ona libosini o'zgartirib, nochor kishi o'rinda birinchi kuni tovoq ko'tarib boribdi. O'g'il onasini tanimasa-da, juda samimiyat va xushfe'llik bilan osh ulashibdi. Ona ikkinchi kuni ham boshqa libosda boribdi. Shunda o'g'il ayolning yuziga uzog'roq tikilibdi, «qayerdadir ko'rgandayman sizni», debdi. Ona uchunchi kuni ham oshga borganida, o'g'il «xola, siz o'tgan ikki kunda ham osh olmagan edingizmi?», deb so'rabdi.

Shunda ona yuzini ochib, o'g'liga debdi: «Mana, ko'rdingmi, bolam, men senga saxovatpeshalik har kimning qo'lidin kelmaydi, deb bekorga aytma-gan edim. Akang mabodo o'n marta qaytib kelgan odamga ham bunday savolni bermaydi. Chunki u o'zining himmatidan lazzatlanadi...»

Alqissa, niyatdan hikmat shuki, yaxshilikni o'z qalbi-mizning halovati uchun qilaylik. Yaxshilikni biron so'raganida emas, balki so'ramaganida ham mavridi bilan qilib turaylik. Uni ko'z-ko'z qilish minnat deyiladi. Minnat esa odamning ko'ngliga og'ir botadi. Shuni esdan chiqarmaylik!

Farmon TOSHEV.

# Qalamga sadoqatli inson

**Jurnalist bo'lishni orzu qilgan aksariyat maktab o'quvchisi yoki bitiruvchisi albatta, gazetalarda o'z ijodi bilan ishtirok etishi lozimligini yaxshi biladi. Shu bois ular yozganlarini tahririyatga jo'natadi. Chop etilsa, xursand bo'ladi. Chop etilmasa-chi? Qoralamalarda ayrim kamchiliklar, xususan, fikrning tarqoqligi, noto'g'ri yoki tekshirilmagan axborotning mavjudligi yoki boshqa sabablarga ko'ra ko'pgina mashqlar gazeta yuzini ko'rmay qolib ketadi. Bunday paytda yoshlar yashash joylariga yaqin bo'lgan tahririyatlarga intiladi.**

Jurnalistikaga havasmand shunday o'quvchilardan biri 1983-yilda Samarqand tumanining «Sharq tongi» gazetasi tahririyatiga qim-tinibgina kirib borganligini boshqa hamkasblar kabi yaxshi eslaydi. Albatta, muharrirning e'tibori o'ziga xos bo'ladi. Agar u yoshlar bilan ishlashni yaxshi ko'rsa, talabgorning imkoniyati kengayadi. Shu bilan birga, o'sha nihol tahririyatda nisbatan yaxshi yozadigan va jamoada o'zi-ga xos hurmat-e'tiborda bo'lgan, asosiysi, bolaning musaffo ko'ngli qabul qiladigan jurnalistni ustozlikka tanlaydi. Bu tabiiy jarayon. Qolaversa, murg'ak qalbni soxta mulozamat bilan rom etib bo'lmaydi. Kamina, ya'ni «o'quvchi-muxbir»ning ko'ngli bu borada tajribali va navqiron jurnalist, «Sharq tongi» gazetasi bo'lim mudiri Xoliq Hakimovni tanlagan.

Bolalik xotiralariga beriladigan bo'lsam, buning birinchi sababi, Xoliq aka yosh va sermahsul jurnalist edi, gazetada tahliiliy-tanqidiy maqolalari ko'p chop qilinardi, yozganlarini radioda ham o'zi o'qib borardi. Xush-qomati, yoqimli ovozi, atrofda qilargalarga iliq munosabati – ochiqligi va xush-chaqchaqligi ham birinchi sababdan kam emas edi nazarimda.

Bir kuni xabarimni ko'tarib tahririyatga kirib borganimda Xoliq aka «mashinistka»ning yonida o'tirib, material «diktovka» qilayotgan ekan. Eshik ortida bu qiziqarli jarayonni kuzatib turdim. U teruvchi qiz ulgurin degan ma'noda ahyon-ahyonda atrofga nazar tashlab qo'yardi. Menga ko'zi tushgach, imlab yonidagi stulga taklif qildi, matnni xuddi radioda o'qigandek ravon «diktovka» qilishda davom etdi. Tugatib, menga yuzlandi-da:

- Qanday yangilik olib kelingiz? - dedi.  
- Brigadaning bir a'zosi boshqalarga nisbatan ko'p pilla yetishtiribdi,

shuni yozgandim, - javob berdim ikkilanib. Qo'lyozmamni olib, tanishib chiqqach:

- Yaxshi. Ertangi songa xushxabar yetmay turgandi. Birdan tayyorlab tushiramiz, - deya mashinistkaga o'girildi-da, sarlavhasini aytdi. Uning og'zidan chiqayotgan ba'zi so'zlar notanish, aniqrog'i yozgan matnimda yo'q edi. U qo'l-yozmamni o'qish bilan birga, bira-to'la tahrir qilayotgandi. Bu holdan hayratga tushganim, men ham shu kishiday jurnalist bo'la olarmikanman, degan xayolga berilganim hamon yodimda. Yangilik ertasi kuni gazetada chop etildi. Xabari tezkorlik bilan e'lon qilingan «o'quvchi-muxbir»dan ko'ra, zahmatkash pillakorning xursandligini ko'rsangiz edi.

Xoliq Hakimov 1949-yil 27-mayda Toyloq tumanidagi Madaniyat mahallasida tug'ilgan. O'rta maktabni tugatib, Samarqand davlat universitetining o'zbek va tojik filologiyasi fakultetida o'qigan.

O'qish bilan birga tuman gazetasida ishlab, jurnalistika tilsimlarini o'rgandi, qalami o'tkir jurnalist sifatida tanildi. U 1991-yilgacha «Sharq tongi» gazetasida avval muxbir, keyin bo'lim mudiri vazifasida ishladi. O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi a'zoliciga qabul qilindi.

Yuqorida uning betakror ovozi haqida qisman so'z yuritgan edik. Samarqand tumani bag'ridan Toyloq tumani ajralib chiqqach, Xoliq aka Toyloqda tashkil etilgan radioeshittirishlar tahririyatida faoliyat ko'rsatdi. 1993-yildan esa Samarqand viloyat teleradiokompaniyasida muharrir lavozimida ishlab, yuzlab reportaj va lavhalar tayyorladi. Ayni paytda «Buyuk Turon» jurnalida faoliyat ko'rsatmoqda. Umrini jurnalistikaga bag'ishlagan bu inson hamon yosh-



larga o'rnak bo'lib, ijodini davom ettirmoqda.

Xoliq Hakimov qishloq xo'jaligini yoritish borasida katta tajribaga ega, boshqacha aytganda, qishloq xo'jaligi sohasiga ixtisoslashgan tajribali jurnalist.

Uning mamlakatimiz miqyosida olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarga bag'ishlangan «Qishloq hayoti», «Qishloq mulkdori», «Dehqon va zamin», «Zamin saxovati», «Umr mazmuni», kabi ko'rsatuvlari teletomoshabinlar e'tiboriga tushgan.

Uning «Dashtda to'y», «Zamin saxovati», «Dalalarda qolgan hislarim», «Yaxshilikdan yaralgan dunyo», «Xumorm» singari o'nlab kitoblari nashr etilgan.

Men Toshkentga kelgunimga qadar jurnalist Xoliq Hakimovga shogird, suhbatiga muxlis bo'lganman, lekin she'rlar bitishidan bexabar ekanman. Uning she'rlarini o'qib, bitgan misralarida soxta ehtiros emas, hayot haqiqati, inson dardi, shukronalik va samimiyat ustuvor ekanligini angladim. U she'rni shoirlikka da'vo uchun emas, qalb ehtiyoji uchun yozarkan. Uning satrlarida yurt mehri, qadrdonlar sog'inchi va umrning o'tkinchiligi aks etadi. Umr yo'ldoshi Zulxumor Egamberdi qizining porloq xotirasiga bag'ishlab chop ettirgan «Xumorm» kitobidagi she'rlarni o'qib shunday xulosaga keldim.

Qutlug' 75 yoshni qarshilayotgan Xoliq akaga mustahkam sog'liq, umriga baraka tilaymiz!

**Halim SAYID,**  
«Oltin qalam» Milliy mukofoti sovrindori, professor.

**Bugun dunyo ekologiya, iqlim o'zgarishi, yashil hududlar tanqisligi, havo ifloslanishi va tabiatni asrash zarurati haqida gapirmoqda. Ammo nazarimda, endi faqat gapirish emas, balki go'zal, ezgu va hayotiy amallarga o'tish vaqti keldi.**

Ayniqsa, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan «Yashil makon» umummilliy loyihasi ana shunday xayrli ishlar uchun keng imkoniyat yaratmoqda.

Nega endi daraxt va butalar ekishni oilaviy hamda jamoat tadbirlarining ajralmas qismiga aylantir-maslik kerak?

Bugun fotosessiyalar, sayrlar, bayramona kortejlar, xotira videolari va jamoaviy suratlar qanday tabiiy qabul qilinayotgan bo'lsa, nega ular qatoriga yana bir go'zal an'anani — tantanali daraxt ekish marosimini qo'shmaslik kerak?

Misol uchun, bu marosim to'y, yubiley, sinfdoshlar va kursdoshlar uchrashuvlari, oilaviy bayramlar hamda turli jamoat tadbirlarining kutilgan va muhim qismiga aylansa, qanday yaxshi bo'lar edi. Tasavvur qiling, kelin-kuyov ota-onalari, qarindoshlari va do'stlari bilan birgalikda daraxt ekishmoqda. Bu muhabbat, vafo, avlod davomiyligi va baxtli oila ramzi bo'lib qoladi. Yoniga esa nikoh sanasi

## HAR BAYRAMDAN SO'NG SURAT EMAS, DARAXT QOLSIN!



(foto: SI)

va oila a'zolarining ismlari yozilgan kichik xotira lavhasi o'rnatiladi. Yillar o'tadi... Daraxt oila bilan birga o'sadi.

Uning soyasida farzandlar o'ynaydi, keyinchalik nabiralari keladi.

Shunda bayram faqat albomlar va telefonlarda emas, balki tabiat bag'rida ham yashashda davom etadi.

Axir tabiat qo'ynida ildiz otib, yillar davomida insonlarga soya, go'zallik va hayot baxsh etadigan nihol bir necha kunda so'lib qoladigan guldastadan ko'ra mazmunliroq emasmi? Zero, odamlar unda nafaqat go'zallikni, balki hayotdan uzib olingan, qisqa vaqtlik hayrat uchun

kesilgan va tez orada so'lib ketadigan gullarning achinarli qismatini ham his etadilar.

**Xuddi shunday, maktab va oliyog'q bitiruvchilari uchrashuvlarida «Do'stlik va yoshlik bog'larini, kumush, oltin va olmos to'ylarini nishonlayotgan oilalar uchun «Vafo va oilaviy donishmandlik bog'larini», 50, 60, 70 va 80 yosh yubilyarlari uchun «Munosib hayot va ibrat bog'ini», chaqaloq tug'ilishi munosabati bilan «Umid va yangi avlod bog'ini», ustozlar, shifokorlar, shoir-lar, hunarmandlar, murabbiylar va el-yurt ardoqlagan insonlar xotirasi**

**uchun esa «Minnatdorlik va ezgu xotira bog'lari» tashkil etilsa.**

Aytgancha, bunday yaxshi an'analar xalqimizda qadimdan mavjud bo'lgan.

Oilada o'g'il farzand tug'ilsa, ezgu niyat bilan ko'pincha terak yoki shamshod ekilgan. Yillar o'tar va farzand daraxt bilan birga ulg'ayardi.

O'z uyini qirish vaqti kelganda esa shu daraxtlar yog'ochidan foydalanilardi. Ammo muhimi, o'sha paytlarda ham tabiatga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishga harakat qilingan.

Kesilgan har bir daraxt o'rniga avvalo, yangi ekishga intilishgan.

Bu hayot davomiyligi, avlodlar vorisligi va yerga bo'lgan hurmat ramzi hisoblangan. Ehtimol, insonning tabiatga bo'lgan haqiqiy madaniyati aynan shunday soddada, dono va insoniy an'analarda namoyon bo'lsa kerak. Juda muhim jihat shundaki, bu tashabbus asta-sekin rasmiy tadbirlar madaniyatining ham bir qismiga aylanishi lozim.

Bu borada hokimliklar, mahallalar, maktablar, oliy ta'lim muassasalari, madaniyat tashkilotlari va jamoat birlashmalarining qo'llab-quvvatlashi muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, bu ishlar oldindan puxta rejalashtirilishi va yaxshi tashkil qilinishi zarur. Har bir shahar, tuman, shaharcha va mahallada bu maqsad uchun maxsus hududlar - xiyobonlar, kichik bog'lar, yashil maydonlar, maktablar, madaniyat markazlari, yangi turarjoylar,

yo'llar va jamoat joylari atrofidagi yerlar oldindan belgilab qo'yilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Muhimi, bu haqdagi ma'lumotlar televideniye, radio, gazeta, internet saytlari, ijtimoiy tarmoqlar va mahalla e'lonlari orqali aholiga muntazam yetkazib turilishi kerak.

Shunda har bir inson oldindan bilib turadi: qaysi joyda daraxt ekish mumkinligi, kinga murojaat qilish lozimligi, qanday ishtirok etish mumkinligi, qaysi ko'chatlar tavsiya etilishi va tadbir qanday tashkil etilishi haqida. Shunda bu tashabbus bir martalik aksiya emas, balki xalq an'anasi va jamoat madaniyatining haqiqiy qismiga aylanadi.

Daraxt ekish qo'shimcha majburiyat sifatida emas, balki bayramning go'zal, sharafli va qalbga yaqin qismi sifatida qabul qilinadi.

Chunki daraxt — oddiy o'simlik emas. U — tirik xotira. Inson tuyg'ulari va orzularining tirik davomidir. Yerga va kelajakka bo'lgan minnatdorlikning tirik ramzidir.

Agar har bir ezgu voqeadan keyin yurtimizda kamida bitta yangi daraxt, bir tup buta, bir xiyobon yoki

kichik bog' qolsa, yillar o'tib nafaqat shahar va mahallalarimiz qiyofasi o'zgaradi. Insonning tabiatga, hayotga va bayram tushunchasiga bo'lgan munosabati ham boshqacha bo'ladi.

Muqimjon ORIFIY.

## Taklif

### SHU OYDA TAVALLUD TOPGANLAR

- 1-IYUL**  
**Avaz ERGASHEV** – (1947-2018) Jomboy tumanida tug'ilgan. O'zbekiston Qahramoni.
- 3-IYUL**  
**Nusrat RAHMAT** – 1941-yilda Samarqand tumanida tug'ilgan. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist.
- 5-IYUL**  
**Dilorom SALOHIIY** – 1959-yilda Kattaqo'rg'on shahrida tug'ilgan. Filologiya fanlari doktori, professor.
- 7-IYUL**  
**Normurod NARZULLAYEV** – (1934-2006) Qashqadaryo viloyati Kasbi tumanida tug'ilgan. O'zbekiston xalq shoiri.
- 8-IYUL**  
**Qo'chqor QARSHIYEV** – (1923-1945) Ishtixon tumanida tug'ilgan. Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi, qahramon.
- 9-IYUL**  
**Bekmurod YO'LDOSHEV** – (1947-2017) Paxtachi tumanida tug'ilgan. Filologiya fanlari doktori.
- 10-IYUL**  
**Toshpo'lat TUGALOV** – 1964-yilda Urgut tumanida tug'ilgan. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi.



**MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi**

**Bosh muharrir: Farmon TOSHEV**

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 10 267 nusxada chop etildi. Buyurtma 253. Hajmi 2 bosma tarmoq, bichimi A-2

**Gazeta haftaning chorshanba va shanba kunlari chiqadi.**

**QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56**

**BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61**

**MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.**

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.  
**Korxona manzili:** Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da.  
Bosishga topshirildi: soat 19:00

**Navbatchi muharrir:**

**A.SHERXOLOV.**

**Navbatchi:**

**G.MO'MINOVA.**


**Sahifalovchi:**

**B.ABDULLAYEV.**



Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



Sotuvda narxi kelishilgan holda